

XIX ASRNING OXIRLARIDA RUS HUKUMATINING TURKISTONDA AMALGA OSHIRGAN TADBIRLARI VA AHOLINI UMUMIY RO'YXATGA OLISH


*Ibroximova Mamlakat, Urganch davlat universiteti
magistranti*

MEASURES IMPLEMENTED BY THE RUSSIAN GOVERNMENT IN TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE GENERAL REGISTRATION OF THE POPULATION

*Ibrokhimova Mamlakat, master's student of Urgench
State University*


МЕРОПРИЯТИЯ РОССИЙСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX ВЕКА И ВСЕОБЩИЙ УЧЕТ НАСЕЛЕНИЯ

*Иброхимова Мамлакат, магистрант Ургенчского
государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0009-1340-2061>

e-mail:
mamlakatibroximova@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxirlarida rus hukumatining Turkistonda amalga oshirgan tadbirlari, ularning mazmun-mohiyati hamda aholini umumiy ro'yxatga olish jarayonlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Muallif mazkur ro'yxatga olish tadbirining ahamiyati, uning o'tkazilishida yuzaga kelgan muammolar va mahalliy aholiga ta'siri haqida fikr yuritadi. Ro'yxatga olish jarayonida til to'sig'i, mahalliy urf-odatlar, demografik ma'lumotlarning aniq emasligi kabi muammolar yuzaga kelgani ta'kidlanadi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat va aholi o'rtasidagi ishonchsizlik masalasi, ro'yxatga olish natijalarining tahliliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston general-gubernatorligi, Rossiya imperiyasi, aholini ro'yxatga olish, XIX asr, demografiya, til muammosi.

Abstrast: This article analyzes the measures implemented by the Russian government in Turkestan at the end of the 19th century, their essence, as well as the process of the general population census on the basis of historical sources. The author examines the significance of this census, the problems that arose during its implementation, and its impact on the local population. It is emphasized that difficulties such as the language barrier, local customs, and the inaccuracy of demographic data emerged during the census process. In addition, issues of mistrust between the local authorities and the population, as well as the analytical significance of the census results, are highlighted.

Key words: Turkestan General-Governorship, Russian Empire, population census, 19th century, demography, language issue.

Аннотация: В данной статье анализируются мероприятия, осуществлённые русским правительством в Туркестане в конце XIX века, их сущность, а также процесс всеобщей переписи населения на основе исторических источников. Автор рассматривает значение данной переписи, проблемы, возникшие при её проведении, и её влияние на местное население. Подчёркивается, что в процессе переписи возникали такие трудности, как языковой барьер, местные обычаи, неточность демографических данных. Кроме того, освещаются вопросы недоверия между местной властью и населением, а также аналитическая значимость результатов переписи.

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, Российская империя, перепись населения, XIX век, демография, языковая проблема.

KIRISH. Dunyoda imperializmning yangi ko'rishlari bo'y ko'rsatayotgan hozirgi davrda xuddi XVI-XIX asrlardagi singari O'rta Osiyo G'arb davlatlari va Rossiya o'rtasidagi siyosiy maydonga aylanmoqda. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Rossiyaning Turkiston o'lkasiga nisbatan siyosiy munosabati masalasini aynan bugungi kunda yosh olimlar o'rganayotganini ko'ramiz. Ammo shu o'rinda 2020- yilning iyun oyida "Baktria press" nashriyotida rus tilida chop etilgan tarixchi olim Sh.Muhamedovning "Rossiya va O'rta Osiyo: tarix sahifalari, shaxslar, fikrlar" ("Россия и Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения") nomli monografiyasidagi fikrini keltiramiz. U o'z asarida ko'pgina ma'lumotlarni ilk bor e'lon qilgan. Bu avvalgi tarixchilar ushbu shaxslarni "mintaqaga qo'shgan hissasi" haqida gapirishni istamaganliklarini ko'rsatadi. Umuman olganda, bizning zamondoshlarimiz Turkiston general-gubernatorligi tarixi haqida nimalarni bilishini tahlil qilmoqchiman. Ushbu davrni o'rganayotgan hozirgi yosh tadqiqotchilar hatto rus tilini ham yetarli darajada bilishmaydi. Boz ustiga, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus tili murakkabroq bo'lgan. Mening fikrimcha, bu davr matbuoti o'ziga xos va undagi maqolalarni o'qish ancha qiyin[1]. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasi tarixida tub burilish davri bo'ldi. Bu davrda mintaqa Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, yangi mustamlaka boshqaruv tizimi joriy qilindi. Rus hukumati Turkistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy nazoratni kuchaytirish maqsadida turli tadbirlarni amalga oshirdi. Shu jarayonlarda nafaqat siyosiy boshqaruv shakllari, balki aholini hisobga olish, soliqqa tortish, yer-mulkni o'lchash kabi choralar ham bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi.

Aholini umumiy ro'yxatga olish – mustamlakachi hukumat uchun eng muhim nazorat vositalaridan biri bo'lib, u orqali demografik tarkib, ijtimoiy tabaqalanish, xo'jalik imkoniyatlari va soliq salohiyatini aniqlash imkoniyati tug'ildi. XIX asr oxirlarida o'tkazilgan bunday ro'yxatlar keyingi ma'muriy boshqaruvni shakllantirishda, shuningdek, Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosiy va iqtisodiy maqsadlariga xizmat qildi. O'rta Osiyoning xomashyo bazasiga aylantirish Rossiya imperiyasining ustuvor davlat siyosati sifatida belgilandi[2].

Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarini o'zaro bog'lab turuvchi jihatlar va faktorlar ko'p, bu tarixdagi umumiylik, jo'g'rofiy joylashuvdagi o'ziga xosliklar, zamonaviy siyosat va kelajakdagi munosabatlar mintaqaning rivojlanishi, umuman olganda esa dunyodagi geosiyosiy vaziyatga ta'sir etadi. Umuman olganda, Rossiya va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Rossiya va O'rta Osiyoning o'zaro munosabatlari tarixi bo'yicha ko'plab maqolalar va qator ilmiy izlanishlar natijalari chop etilganiga qaramay, dunyoning juda ko'p mamlakatlari, ayniqsa AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida bu masalaga tobora chuqurroq kirib bormoqdalar. O'zbekistonda vatan tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. O'ylaymizki, mazkur tadqiqot nafaqat e'lon qilingan davrga oid, balki XX va XXI asrlardagi o'zgarishlar yuzasidan zamondoshlarimiz ongida shakllangan fikrlarni qayta ko'rib chiqishlariga turtki berishi mumkin.

Tadqiqot usuli: Mazkur tadqiqot mavzusini ochiqlashda fanlararo yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, statistik va etnografik dala amaliyotining bevosita kuzatuv, so'rovnoma, intervyu kabi usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish mobaynida Ibratning "Farg'ona tarixi"[2], Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy, "Turkiston o'lkasini boshqarish" haqidagi Nizom [3], Bartold V.V. История культурной жизни Туркестана, [4], Likoshin N.S. "Полжизни в Туркестане" asari [5], hamda Ziyoev H. "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII – XX asr boshlari)"[6], asarlaridan keng foydalanildi.

Tajriba (tadqiqotni amalga oshirish). XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi o'zining mustamlakachilik siyosatini kuchaytirish bilan bir qatorda, ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratdi. Shu yo'nalishda amalga oshirilgan eng muhim tadbirlardan biri – 1897-yilgi umumrossiya aholini ro'yxatga olish bo'lib, u imperiya tarixida ilk bor keng ko'lamda o'tkazilgan demografik tadbir sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur ro'yxatga olish jarayonlari Turkiston o'lkasini ham qamrab oldi.

1897-yildagi birinchi umumiy ro'yxatga olinguniga qadar Turkiston aholisi aniq

hisoblanmagan. Har yili ma'muriyat vakillaridan o'z hududlaridagi aholi soni to'g'risida ma'lumot talab qilingan, ammo ularda aniq ma'lumotlarni olish uchun zarur vositalar umuman yo'q edi. Shuning uchun faqat taxminiy raqamlar taqdim etilgan bo'lib, ular uylar soni va har bir uyda taxminan 5-7 kishi yashashi haqidagi arifmetik hisob-kitoblarga asoslangan edi. Natijada, aholi soni faqat umumiy son bo'yicha nisbatan haqiqatga yaqin tushuncha berilgan, ammo yosh tarkibi, jinsi, kasblar va hudud bo'yicha taqsimot aniqlanmagan. Umumiy ro'yxatga olish butun ma'lumotni yig'ishi lozim edi. Bu tartib qoidalarida ko'rsatilgan savollardan ham ko'rinib turadi. Turkistonda ro'yxatga olish uchun eng maqbul vaqt qish fasli deb belgilangan, chunki shu davrda aholining katta qismi o'z joyida bo'ladi. Bahor va yozda ko'pchilik ko'chib yuradi, shuning uchun ro'yxat noyabr va dekabr oylarida o'tkazilishi kerak edi. Agar shu davrda ham ko'chib yuruvchilar aniqlansa, ular qaysi hududga tegishli ekanligi belgilanib, ro'yxatga olish amalga oshirilgan. Masalan, Chimkent uyezdidagi ko'chmanchilar ko'pincha Amudaryo sohillarigacha borardi. Ular yozda Paraqon orqali ro'yxatga olinib, qaysi hududda ro'yxatga kiritilganligi qayd etilishi kerak edi.

Shuningdek aholini ro'yxatga olish jarayonida ro'yxatga oluvchilar yana bir muammo – til muammosiga ham duch kelishgan. Turkiston aholisining deyarli barchasi rus tilini bilmaydi, rus aholisi esa mahalliy tillarni yaxshi bilmagan. Ro'yxatga olish nizomida bu holat inobatga olinib, mahalliy tushunadigan tildagi savollar ro'yxatga olish varaqlarida chop etilishi ko'zda tutilgan. Mamlakatda aholi turli millatlardan iborat bo'lgani uchun yagona davlat tili mavjud emas. Shu sababli, mahalliy tillarni yaxshi biladiganlar soni kam va ular faqat kichik guruhlarda to'plangan. Shuning uchun, mahalliy larni faqat rus hisobchilari tomonidan ro'yxatga olish uchun, har bir hisobchiga tarjimon biriktirish kerak bo'lgan. Ro'yxatga olish ishlari davomida har bir xonadonda uzoq suhbat qilishga to'g'ri kelgan, shuning uchun hisobchilar uchun tarjimonlar zarur bo'lgan. Bunday tarjimonlar orasida mahalliy amaldorlar, talabalar va o'qituvchilar bor edi. Ro'yxatga olish ishlari uchun mahalliy hokimiyat idoralari, talabalar, o'qituvchilar va harbiy qismlardan ofitserlar jalb etilgan. Ular mahalliy tillarni tushunish va ro'yxatga olishni osonlashtirish uchun zarur bo'lgan.

Toshkent mahalliy lari o'z navbatida shahar mol-mulkini baholash uchun, shahar soliqlarini kiritishda hamda oilaviy ro'yxatlarni tuzish uchun

yana uch marta ro'yxatga olingan. Bu ro'yxatlar har bir shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini va qaysi oilaga tegishli ekanligini belgilash uchun juda muhim bo'lgan, chunki shahardan tashqariga chiqish yoki savdo-sotiqni boshlash uchun har bir shaxs shahar starshinasidan maxsus hujjat olishi lozim edi. Bu ro'yxatlar, "jamiyat daftarlari" deb atalgan bu hujjatlar, faqat Toshkentda emas, balki boshqa shaharlarda ham, qishloqlar va mahallalarda ham bo'lgan. Lekin bunday xususiy ro'yxatga olishlar 1897-yilgacha amalga oshirilmagan. Shuning uchun ro'yxatga olish boshlanishidan ancha oldin mahalliy aholini uning tartibi bilan tanishtirish va ularni ishontirish kerakki, bu jarayon ular uchun hech qanday noxush oqibatlariga olib kelmaydi. Masalan, soliqlarning oshishi, harbiy majburiyatlar yoki majburiy ko'chirish kabi xavotirlar paydo bo'lishi mumkin. Mahalliy aholini ro'yxatga olish jarayoni bilan tanishtirish uchun ommaviy tarqatma xatlardan foydalanish mumkin bo'lgan. Bu xatlarda aholiga ro'yxatga olishning ahamiyati va shartlari tushuntirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ma'muriyat vakillari orqali aholiga shaxsan tushuntirish ishlarini olib borish kerak bo'lgan. Mahalliy aholi hisoblovchilariga tayanish zarurati tufayli, shaxsiy ma'lumotlar kartalarini ikki tilda chop etish, shuningdek, javoblarni mahalliy tilda yozish taqozo etiladi. Aytish mumkinki, millionlab kartochkalarni rus tiliga tarjima qilish qiyinchilik tug'dirgan. Ammo faqat shu yo'l bilan aholi soni va tarkibi haqida haqqoniy ma'lumot olish mumkin bo'lgan. Bu odamlar yetarlicha savodli, shuningdek, ular foydali bo'lishi mumkin, chunki ular mahallaning deyarli barcha aholisini, uylarning joylashuvini, kasb-hunarlarini va qo'shnilarini bilan bo'lgan oilaviy munosabatlarini yaxshi bilishgan.

Aholini ro'yxatga olish mexanizmini tushuntirib berish va tanlangan mahalliy hisobchilarni imzo qo'ydirib, barcha belgilangan qoidalarga rioya qilishga majburlash mumkin bo'lsa-da, hisobchilar to'g'ri ma'lumotni yozishlariga to'liq ishonib bo'lmaydi. Shu sababli, ro'yxatga olishda ishtirok etuvchilarni ogohlantirish kerak, har bir topshirilgan ma'lumot tekshiriladi, bu esa qat'iy amalga oshirilishi zarur edi. Mahalliy hisobchi ba'zi odamlarni ro'yxatga qo'shmasligi mumkin, lekin u buni nima uchun qilganini aniq tushuntirib bermasligi ham ehtimoldan xoli emas. Bu hatto u qasddan yolg'on ma'lumot bermagan holda, sodda va beixtiyor harakat qilgan holatda ham sodir bo'lishi mumkin edi. Toshkentning mahalliy qismlarida oilalar bo'yicha ro'yxatga olish paytida ro'yxatda

ko'rsatilgan aholi soni doimo haqiqiy aholi sonidan kamroq bo'lardi. Bu esa mahalliy yer egalari o'z xotinlari va qizlarini yashirgani, hisobchiga ularning ismlarini aytishni istamagani bilan bog'liq edi. Chunki mahalliy an'analarda erkak kishi o'z xotini yoki qizining ismini begonaga aytishni qabih ish deb bilishardi.

Shunday qilib, mahalliy aholini qayd qilish, ayniqsa, qish faslida juda muhimdir, chunki ularning aniq yashash manzilini belgilash juda qiyin kechgan. Bu esa aholi ro'yxatini olishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin edi. Masalan, biror kishi ro'yxatdan biror joyda tunab qolgani uchun o'sha yerda qayd etilsa, lekin aslida o'z uyida ham hisobga olinsa, bu katta chalkashlikka sabab bo'ladi. Shuning uchun ro'yxatga oluvchilar har bir kishining aniq yashash manzilini to'g'ri aniqlashga katta e'tibor qaratishlari kerak bo'lgan. Bundan tashqari, shaxsiy kartochkalarga yoshni kiritishda ham qiyinchiliklar yuzaga kelgan, chunki mahalliy aholi o'z yoshini aniq aytishda qiynalgan. Kamdan-kam hollarda mahalliy odam o'z yoshini aniq ayta olgan. Bu shundan kelib chiqadiki, ular yoshni hisoblashda o'ziga xos 12 yillik sikldan foydalanganlar, bunda har bir yil alohida nomga ega bo'ladi.

XULOSA qilib aytganda Rossiya hukumati uchun aholini aniq hisobga olish bir nechta muhim vazifalarni hal etish imkonini berdiki, ular quyidagilardan iborat edi:

- soliq siyosatini samarali yo'lga qo'yish;
- harbiy xizmatga layoqatli kishilar sonini aniqlash;
- iqtisodiy resurslar va xo'jalik salohiyatini belgilash;
- mahalliy aholining etnik, ijtimoiy va diniy tarkibini o'rganish. Turkiston o'lkasida 1897-yilgi ro'yxatga olishni o'tkazish quyidagi bir qator murakkabliklar bilan kechdi:

- Til to'sig'i – ro'yxatga oluvchilar ko'pincha rus tilida so'rov o'tkazgan bo'lsa-da, mahalliy aholi asosan o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman va tojik tillarida so'zlashar edi. Bu holat ma'lumotlarni yig'ishda qiyinchilik tug'dirdi;

- Mahalliy urf-odatlar – ayollar yoki xonadon a'zolari haqidagi ma'lumotlarni begonalarga oshkor etish ko'plab hollarda rad etildi;

- Ishonchsizlik – mustamlakachi hukumat tomonidan o'tkazilgan tadbirga mahalliy aholi shubha bilan qaradi, bu esa ayrim ma'lumotlarning noto'g'ri yoki yashirilgan holda qayd etilishiga sabab bo'ldi;

- Ma'lumotlarning aniqligi – ko'plab hollarda tug'ilish yoki nikoh sanalari aniq eslab qolingan

emas, bu demografik ko'rsatkichlarning to'liq bo'lmasligiga olib keldi.

Ro'yxatga olish jarayoni esa mazkur o'ziga xos natijalarni berdi: 1897-yilgi Turkiston o'lkasida yashovchi aholining soni, milliy tarkibi, diniy e'tiqodi, savodxonlik darajasi hamda xo'jalik faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar yig'ildi. Natijalar Rossiya imperiyasi ma'muriyati uchun mustamlakachilik siyosatini yanada puxta rejalashtirishda, soliqlarni belgilashda va harbiy safarbarlikni tashkil etishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Xullas, 1897-yilda o'tkazilgan birinchi umumrossiya aholini ro'yxatga olish Turkiston o'lkasida demografik, etnik va ijtimoiy holatni o'rganish imkonini bergan muhim tadbir bo'ldi. Biroq u o'z davrida hukumatning mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgani sababli, unda qayd etilgan ma'lumotlar mahalliy aholining ijtimoiy hayotini to'liq aks ettira olmadi. Shunga qaramay, mazkur ro'yxat bugungi kunda ham o'lkashunoslar va tarixchilar uchun bebaho manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ш.Мухаммедов. Россия ва Ўрта Осиё: тарих саҳифалари, шахслар, фикрлар (Россия и Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения). Монография.-Т. Бактрия пресс. 2020. 5-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.
Ибрat. “Фарғона тарихи. М.Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. 1992 йил. Тошкент. Мерос нашриёти.
4. Положение об управлении Туркестанского края. Т2, ч.2: Издание 1886 года. – Санкт-петербург : [Б. и., 1886]. - 649-703 с. 29 см. - Без тит. л. и обл. ББК 63.3 (28-83Тур)522к121к22.ББК 67.401.131-1-328(28-83Тур).
5. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана, 1927.Л. 6.247. Масалский К. Туркестанский край. Россия, XIX. СПб, 1913.с. 341 Понятовский С. Опыт изучения хлопководства в Туркестане и Закаспийской области. СПб, 1913. с. 289 Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане. 1930.М. 6.111.
6. Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. Петроград. 1916 г. 29- б.
7. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 1998.